XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-sentabr VI-88-80-11-163-K/24 Farg‘ona tumani

Farg‘ona tumanidagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to‘g‘risida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi va qayta nomlash sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Farg‘ona viloyati hokimligining 2024-yil 16-iyuldagi 06-7\2315-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Farg‘ona viloyatining Farg‘ona tuman komissiyasining jami **20 ta** geografik obyekt (20 ta qabriston)ni nomlash bo‘yicha taklifi Ekspertiza komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, shuningdek qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasiga taqdim etilgan jami 20 **ta** geografik obyektni nomlash bo‘yicha taklifidan **20 ta** geografik obyektga taklif etilgan nom “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq. Shundan **15 ta** geografik obyekt nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi va muvofiqligi to‘g‘risida ekspert xulosasi ma’qullandi.

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan tumandagi geografik obyekt nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlangan. Shunga ko‘ra, Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan geografik obyektlarni ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanish belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 29-iyuldagi 05-19-01-2806-son ekspert xulosasiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Qaror qiladi:-

1.Farg‘ona tuman hokimi maslahatchisi M.Obidovaning “Farg‘ona tumanidagi “Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to‘g‘risida”gi taklifi ma’qullansin.
2.Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida muvofiqlashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan “Farg‘ona tumani mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan qabriston va ziyoratgohlar” ***ro‘yhati ilova***ga muvofiq tasdiqlansin.
3.Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik ob’yektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.
4.Mazkur qaror “Vodil yog‘dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.
6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Сессия раиси

MADUMAROV
ORTIKALI
DAVUROVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2024-yil 16-sentabrdagi
VI-88-80-11-163-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan qabristonlar ro‘yxati.

№	Qabriston joylashgan MFY	Qabriston nomi	Qabriston nomining izohi
1	Bo‘ston MFY	“Boqiylik”	**Boqilik** – “Ceografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi
2	Barqaror hamjixatlik MFY	“Yangiqo‘rg‘on”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Mehnatobod MFY	“Kaptarxona”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Damko‘l MFY	“Damko‘l”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Oqtom MFY	“Oqtom”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Oqtepa MFY	“Qo‘chqorchiota”	**Qo‘chqorchiota**-“Ceografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi
7	Qorayantoq MFY	“Qorayantoq”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Qorayantoq MFY	“Do‘stlik”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Qorayantoq MFY	Xidirsho	Xidirsho-“Ceografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi
10	O‘zbekiston MFY	“Adirtagi”	Qonun hujjatlari talablariga

			muvofiq
11	Farg‘ona MFY	Abadiyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Qo‘rg‘ontepa MFY	“Qo‘rg‘ontepa”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13	Yangi yo‘l MFY	“Yangiyo‘l”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Yangiobod MFY	“Yangibog‘”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Satkak MFY	“Satkak”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq